

---

## Фарғона шаҳрида янги тиббиёт муассасалари ташкил этилмоқда

Inson qadri ulug'lanayotgan yurtimizda aholi salomatligini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada viloyatimizda ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Farg'ona shahridagi o'rganishlari davomida tibbiyot yo'nalishida amalga oshirilayotgan yangi loyihalar bilan ham tanishib, ularni o'z vaqtida va sifatli foydalanishga topshirilishi yuzasidan mutasaddilarga zarur topshiriqlar berdi.

Xususan, viloyat bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markaziga qo'shimcha 90 o'rinli bino qurilib, "Bolalar kardiologiyasi bo'limi"ni tashkil qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan qurilish ishlari ko'zdan kechirildi. Loyiha qiymati 16,5 milliard so'm bo'lib, yangi qurilayotgan binoda 30 o'rinli kardioxirurgiya, 30 o'rinli onkogematologiya, 30 o'rinli neyroxirurgiya, 6 o'rinli reanimatsiya va operblok joylashadi.

Shahardagi Yuksalish ko'chasida joylashgan Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazining Farg'ona filiali balansida bo'lgan 7 qavatli binoni ham bugungi kunda rekonstruktsiya qilish hamda hududda yangi qabulxona qurishni tashkil etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

2022-09-27 16:21:53